O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 378.4(575.1)(091)

Shaxnoza K. SAYFUDDINOVA,
O‘qituvchi, PDP universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: shaxnozasayfuddinova0404@gmail.com, ORCID: 0009-0003-6790-9868

Sarbon universiteti Registrator ofisi boshlig‘i, PhD, dotsent R.Rasulov taqrizi asosida

INSTITUTIONAL FORMATION OF PRIVATE HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN AND ITS TURN TO QUALITY ASSURANCE (2017–2025)

Annotation

The number of non-state higher education institutions in Uzbekistan grew from 4 in 2019/2020 to 99 in 2024/2025. The article reconstructs the institutional history of private higher education in 2017–2025 on the basis of legislation, official statistics and administrative reports, using historical-comparative analysis and source criticism. Diverging figures published by different agencies are explained by their terminology, reference date and coverage rather than by closures. A three-stage periodisation is proposed: entry conditions (2017–2019), legal consolidation and rapid expansion (2020–2023), and a turn to quality assurance (2024–2025).

Key words: Private higher education, non-state higher education institution, Uzbekistan, institutional history, licensing, accreditation, quality assurance.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ЧАСТНОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПЕРЕХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ КАЧЕСТВА (2017–2025 ГГ.)

Аннотация

Число негосударственных вузов Узбекистана выросло с 4 в 2019/2020 учебном году до 99 в 2024/2025 учебном году. В статье на основе законодательства, официальной статистики и ведомственных отчётов с применением историко-сравнительного метода и критики источников реконструируется институциональная история частного высшего образования в 2017–2025 годах. Расхождения в данных разных ведомств объясняются терминологией, датой и охватом источника, а не закрытием вузов. Предложена трёхэтапная периодизация: условия входа (2017–2019), правовое закрепление и быстрое расширение (2020–2023), переход к обеспечению качества (2024–2025).

Ключевые слова: Частное высшее образование, негосударственный вуз, Узбекистан, институциональная история, лицензирование, аккредитация, обеспечение качества.

O‘ZBEKISTONDA XUSUSIY OLIY TA’LIMNING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA SIFAT NAZORATIGA O‘TISHI (2017–2025-YILLAR)

Annotatsiya

O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni 2019/2020-o‘quv yilidagi 4 tadan 2024/2025-o‘quv yilida 99 taga yetdi. Maqolada 2017–2025-yillarda xususiy oliy ta’limning institutsional tarixi qonunchilik, rasmiy statistika va idoraviy hisobotlar asosida, qiyosiy-tarixiy usul va manbashunoslik tanqidi yordamida tiklangan. Turli idoralar e’lon qilgan raqamlar orasidagi tafovut oliygohlarning yopilishi bilan emas, balki manbaning atamasi, hisob sanasi va qamrovi bilan izohlangan. Uch bosqichli davrlashtirish taklif etiladi: faoliyatga kirish shartlari (2017–2019), huquqiy mustahkamlanish va tez kengayish (2020–2023), sifat nazoratiga o‘tish (2024–2025).

Kalit so‘zlar: Xususiy oliy ta’lim, nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, O‘zbekiston, institutsional tarix, litsenziyalash, akkreditatsiya, sifat nazorati.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yigirma yilida O‘zbekistonda oliy ta’lim asosan davlat tizimi doirasida rivojlandi. 2010-yillarning oxiridan bu manzara keskin o‘zgardi: 2019/2020-o‘quv yili boshida mamlakatda atigi 4 ta nodavlat oliy ta’lim tashkiloti hisobga olingan bo‘lsa, 2024/2025-o‘quv yilida ularning soni 99 taga yetdi [1; 2]. Besh yil ichidagi bunday o‘sish xususiy oliy ta’limni oliy ta’lim siyosatidagi eng tez o‘zgargan yo‘nalishlardan biriga aylantirdi.

Davlat rahbariyati bu jarayonni ham rag‘batlantirgan, ham tanqidiy baholagan. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish vazifasi qo‘yilgan edi [3]. Oradan uch yil o‘tib, Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida 2025-yil 30-aprelda o‘tkazilgan taqdimotda «nodavlat ta’lim tashkilotlarining barchasida ham ta’lim sifati birdek ta’minlanmagan» degan baho berildi [4]. Demak, miqdoriy maqsadga erishilgach, kun tartibida sifat masalasi birinchi o‘ringa chiqdi.

Tadqiqotning maqsadi. 2017–2025-yillarda xususiy oliy ta’limning institutsional shakllanishini normativ hujjatlar va rasmiy statistikani solishtirish asosida tiklash. Vazifalar: huquqiy bazaning bosqichma-bosqich shakllanishini aniqlash; «xususiy» va «nodavlat» toifalarida e’lon qilingan raqamlarni hisob doirasi bilan birga qiyoslash; sohaning rivojini davrlashtirish. Ishning ilmiy yangiligi litsenziyalashdan sifat nazoratiga o‘tish jarayonini manbashunoslik nuqtayi nazaridan davrlashtirish hamda turli idoralar e’lon qilgan, bir-biriga mos kelmaydigan raqamlarni ularning manba chegaralari bilan birga izohlashdan iborat. Quyi chegara sifatida nodavlat ta’lim xizmatlariga oid maxsus Prezident qarori qabul qilingan 2017-yil [5] (garchi ayrim nodavlat ta’lim muassasalari 1990-yillardayoq faoliyat boshlagan bo‘lsa-da [6]), yuqori chegara sifatida sifatni tashqi baholash tizimi qayta tashkil etilgan 2025-yil olindi [7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. D.Levi xususiy oliy ta’limning jahon miqyosidagi «portlash»ini tahlil qilib, xususiy oliygohlarni uch turga ajratadi: elita va yarim elita oliygohlari, diniy yoki madaniy o‘ziga xoslikka tayangan muassasalar hamda davlat sektori qondira olmagan talabni o‘ziga oluvchi (demand-absorbing) oliygohlar [8]. Muallifning fikricha, eng tez o‘suvchi tur oxirgisi bo‘lib, uning asosiy muammosi sifat bilan bog‘liq. P.Altbax va D.Levi tahriridagi monografiyada ham ko‘p mamlakatlarda xususiy sektor davlat tartibga solishidan ilgarilab o‘sgani, nazorat esa keyinroq shakllangani ko‘rsatiladi [9]. Bu kuzatish O‘zbekiston tajribasini talqin qilishda muhim qiyosiy nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

K.Ruziyev va U.Burxanov mustaqillikdan keyingi O‘zbekiston oliy ta’lim siyosatini tahlil qilib, qabul kvotalarining uzoq vaqt cheklanganligi talab va taklif o‘rtasida katta tafovut hosil qilganini ko‘rsatgan [10]. N.Eshonqulova nodavlat oliy ta’limning ijtimoiy funksiyalari va raqobatbardoshligiga e’tibor

qaratadi [11]. B.Iminov 1991–2024-yillarda nodavlat ta’lim muassasalarining vujudga kelishini qonunchilik o‘zgarishlari va davlat-xususiy sheriklik bilan bog‘laydi [6]. Xalqaro matbuotda esa xususiy oliygohlarga talabning manbai sifatida davlat oliygohlariga kirish imkoniyatining torligi (2023-yilda abituriyentlarning 18 foizga yaqini qabul qilingan) qayd etiladi [12].

Ko‘rib chiqilgan ishlarda «xususiy» va «nodavlat» atamalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi, raqamlar esa hisob sanasi va qamrovi ko‘rsatilmay keltiriladi. Natijada bir davr uchun 67, 71, 74 va 99 kabi turlicha sonlar yonma-yon yuradi. Mazkur maqola shu bo‘shliqni manbalar tanqidi asosida to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan umumrespublika darajasidagi tarixiy keys sifatida tuzildi; tahlil induktiv yo‘nalishda olib borildi. Tarixiylik tamoyiliga ko‘ra hujjatlarning lex.uz bazasidagi dastlabki tahrirlari olindi, keyingi o‘zgartirishlar o‘tgan davrga ko‘chirilmadi [5]. Birlamchi ma’lumotlarni normativ hujjatlar, statistik relizlar hamda Prezident matbuot xizmati va vazirlik hisobotlari tashkil etdi; ilmiy tadqiqotlar ikkilamchi ma’lumot sifatida jalb qilindi.

Atamalarni aniqlashtirish ham metodologiyaning muhim qismi bo‘ldi. «Nodavlat oliy ta’lim tashkiloti» deganda rasmiy statistikada shu nom bilan hisobga olingan barcha tashkilotlar tushunildi. «Xususiy oliygoh» atamasi esa manbada aynan shu ifoda qo‘llangan hollarda yoki mavzuni umumiy nomlashda ishlatildi. Xorijiy oliygohlar va ularning filiallari mahalliy xususiy oliygohlarga avtomatik tenglashtirilmadi. Toifalar o‘rtasidagi farq tushuntirilmagan o‘rinlarda raqamlarni taxminan moslashtirish o‘rniga taqqoslash chegarasi ochiq ko‘rsatildi.

Qiyosiy-tarixiy, xronologik, kontent-tahlil va manbalarni tashqi hamda ichki tanqid qilish usullari qo‘llandi. Har bir raqam uchun atama («xususiy» yoki «nodavlat»), kuzatuv sanasi va hisobga xorijiy oliygohlar kiritilgan-kiritilmagani tekshirildi. Ishonchlilik har bir muhim faktni kamida ikki mustaqil manba bilan solishtirish orqali ta’minlandi. Kontrakt narxlari va ta’sischilar investitsiyasi bo‘yicha yagona baza yo‘qligi sababli bu omillarning miqdoriy ta’siri baholanmadi.

Tahlil va natijalar. Yangi bosqich uchun huquqiy zamin 2017–2018-yillarda yaratildi. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son qaror nodavlat ta’lim xizmatlarini kengaytirishning umumiy shartlarini belgiladi [5], 2018-yil 27-martdagi Vazirlar Mahkamasining 241-son qarori esa nodavlat ta’lim faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirdi [14]. Shunday qilib, davlat xususiy tashabbusga yo‘l ochish bilan birga unga aniq talablarni ham qo‘ydi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmon bilan tasdiqlangan konsepsiya esa nodavlat oliy ta’limni tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rishga asos bo‘ldi [15]. Shu paytgacha istisno sifatida qaralgan xususiy tashabbus strategik rejalashtirish obyektiga aylandi. Biroq konsepsiyadagi maqsadli ko‘rsatkichlar o‘sha davrda erishilgan natija emas, balki rejalashtirilgan yo‘nalish edi; dasturiy matn bilan amaliy ijroni farqlash bu davr tarixining asosiy manbashunoslik talabidir.

2020-yilgi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son qonunning dastlabki tahririda nodavlat ta’lim tashkiloti «litsenziya asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs» sifatida ta’riflangan [13, 3-modda]. Qonunning 31-moddasi nodavlat ta’lim tashkilotlariga, 57–59-moddalari esa litsenziyalash, attestatsiya, akkreditatsiya va sifatni baholashga bag‘ishlangan. Demak, sifat nazorati 2025-yilda noldan paydo bo‘lmagan, keyingi o‘zgarish uning shakli va kuchiga taalluqlidir. 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son farmonda esa «xususiy oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti berish tizimi joriy etilsin» degan norma paydo bo‘ldi [16, 3-band]. Bu davlat buyurtmasi bilan xususiy ta’lim taklifi o‘rtasida moliyaviy ko‘prik qurilganini anglatadi, garchi u grantlarning barcha oliygohlarga teng taqsimlanganini bildirmasa-da. Shu yilning 14-iyulida qabul qilingan O‘RQ-701-son qonun esa litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilishning umumiy tartib-taomillarini belgiladi [17]. Shu bois tarmoq qonunchiligini umumiy ma’muriy qoidalar bilan birga o‘qish zarur.

Huquqiy shart-sharoitlar statistikada ham aniq aks etdi (1-jadval).

1-jadval. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni (o‘quv yili boshiga)

O‘quv yili	Soni	Yillik o‘sish	Manba
2019/2020	4	–	[1, 4-b.]
2020/2021	5	+1	[1, 4-b.]
2021/2022	17	+12	[1, 4-b.]
2022/2023	42	+25	[1, 4-b.]
2023/2024	93	+51	[1, 4-b.]
2024/2025	99	+6	[2, 1-b.]

Manba: Statistika agentligi [1] va Milliy statistika qo‘mitasi [2] relizlari asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, o‘sish 2021/2022-o‘quv yilidan keskin tezlashgan va eng katta yillik o‘sish 2023/2024-o‘quv yiliga to‘g‘ri kelgan (51 ta). Bu davrda qonun nodavlat tashkilotning maqomini aniq belgilagani, grant normasi paydo bo‘lgani va davlat oliygohlariga kirish imkoniyati torligicha qolgani bir-biriga to‘g‘ri keldi [10]. 2024/2025-o‘quv yilida esa atigi 6 ta tashkilot qo‘shilgan. 2017–2018-yillar uchun xuddi shu shakldagi ma’lumot topilmagani jadvalga nol yozish bilan to‘ldirilmadi, chunki ma’lumotning yo‘qligi tashkilotning yo‘qligini bildirmaydi. Taraqqiyot strategiyasidagi «kamida 50 ta» maqsadi [3] 2023/2024-o‘quv yilidayoq ortig‘i bilan bajarilganidan so‘ng e’tibor tashkilotlar sonidan faoliyat natijalariga ko‘chdi. 2024-yil 24-maydagi PF-81-son farmon qabul va davlat buyurtmasini joylashtirish tartibini yangiladi [18]. Uni 2021-yilgi grant normasi bilan birga o‘qish xususiy oliygohlar va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar bir necha bor qayta tartibga solinganini ko‘rsatadi: sektorning davlat bilan aloqasi litsenziya olish bilan tugamagan, qabul tartibi va grant o‘rinlari ham o‘zgarib borgan.

2024–2025-yillarga oid manbalarda xususiy va nodavlat oliygohlar soni turlicha beriladi (2-jadval).

2-jadval. Turli manbalarda xususiy va nodavlat oliygohlar soni

Manba	Soni	Qo‘llangan atama	Hisob sanasi yoki davri
Milliy statistika qo‘mitasi [2]	99	nodavlat oliy ta’lim tashkiloti	2024/2025-o‘quv yili boshi
Prezident matbuot xizmati [4]	71	xususiy oliygoh	2025-yil 30-aprel
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi [19]	74	nodavlat oliygoh	2025-yil yakunlari
The Diplomat nashri [12]	67	xususiy universitet	2024/2025-o‘quv yili

Bu raqamlarni bir-biridan ayirib, masalan, 99 va 71 o‘rtasidagi farqni yopilgan oliygohlar soni deb talqin qilish xato bo‘lardi. Manbalarda turli atamalar ishlatilgan, hisob sanalari ham mos kelmaydi. Vazirlik hisobotida 101 davlat, 32 xorijiy va 74 nodavlat oliygoh alohida ko‘rsatilgan [19], bu xorijiy oliygohlarni mahalliy nodavlat sektordan ajratishga imkon beradi. Prezident

matbuot xizmati keltirgan «500 ming nafarga yaqin talaba va o‘quvchi» ko‘rsatkichi esa 71 xususiy oliygoh bilan birga 51 xususiy texnikumni ham qamrab oladi [4], shu bois uni faqat oliygoh talabalari soni sifatida keltirib bo‘lmaydi.

Sifat masalasining huquqiy yechimi 2025-yil 5-maydagi PF-76-son farmonda o‘z ifodasini topdi [7]. Unga ko‘ra, kompleks davlat akkreditatsiyasi har besh yilda o‘tkaziladi, 2025-yil 1-iyuldan esa yangi ta’lim tashkilotini ochish ikki bosqichga – litsenziya olish va dasturlarni maxsus akkreditatsiyadan o‘tkazishga ajratildi [7]. Endi tashkilotning mavjudligi va uning muayyan dastur bo‘yicha talaba qabul qilish huquqi alohida baholanadi. Apreldagi taqdimot bilan maydagi farmon o‘rtasidagi bir haftaga yetmagan masofa siyosiy bahoning huquqiy normaga qanchalik tez aylanganini ko‘rsatadi. Yangi tizimning amaliy samarasini esa keyingi akkreditatsiya natijalari asosida baholash mumkin bo‘ladi.

Shu asosda uch bosqich ajratiladi: birinchi bosqich (2017–2019) – faoliyatga kirish shartlari va strategik yo‘nalishning shakllanishi; ikkinchi bosqich (2020–2023) – huquqiy maqomning mustahkamlanishi, grant mexanizmining joriy etilishi va tez kengayish; uchinchi bosqich (2024–2025) – moliyalashtirish tartibining qayta ko‘rilishi va sifat nazoratining kuchayishi. Bosqichlar chegarasi shartli, chunki sifat nazorati uchinchi bosqichda birinchi marta paydo bo‘lmagan. Bu manzara D.Levi ta’riflagan dinamikaga mos keladi: avval tez miqdoriy o‘sish, so‘ngra sifat talablarining kuchayishi [8].

Xulosa va takliflar. 2017–2025-yillarda O‘zbekistonda xususiy oliy ta’lim huquqiy ruxsat, moliyaviy munosabat va tashqi baholash yo‘nalishlarida izchil shakllandi. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni 4 tadan 99 taga yetgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich o‘z-o‘zidan ta’lim sifati yoki bitiruvchilarning ishga joylashuvi haqida ma’lumot bermaydi. Sektor tarixini faqat oliygohlar soni bilan o‘lchash uning davlat va jamiyat bilan munosabatlari qanday o‘zgarganini tushuntira olmaydi. Shu bois xususiy oliy ta’lim tarixini huquqiy hujjatlar, statistika va boshqaruv organlarining baholarini birgalikda tahlil qilish orqali o‘rganish to‘liqroq manzara beradi.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari oliy ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar, statistika organlari va oliygohlar ma’muriyati uchun sektor rivojini baholashda qo‘shimcha mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini ularning soni bilan birga litsenziya, akkreditatsiya va talabalar kontingentiga oid ko‘rsatkichlar orqali yagona tizimda kuzatish sifat nazoratining ochiqligini oshiradi.

Takliflar: birinchidan, har bir xususiy oliygoh uchun ta’sis, litsenziya, ilk qabul va akkreditatsiya sanalarini aks ettiruvchi ochiq reyestr yaratish; ikkinchidan, statistika va vazirlik hisobotlarida «xususiy», «nodavlat» va «xorijiy» toifalarining hisob doirasini izohlovchi metodik izoh berish; uchinchidan, rasmiy manbalarni talabalar va professor-o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar bilan to‘ldirish. Keyingi tadqiqotlar uchun hududiy kesimdagi tahlil va 2025-yildan keyingi akkreditatsiya natijalarining sektor tuzilishiga ta’sirini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim 2023/2024-o‘quv yili boshiga. – Toshkent, 2024. – 4-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim 2025/2026-o‘quv yili boshiga: press-reliz. – Toshkent, 26.05.2026. – 1-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022. https://lex.uz/docs/-5841063
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Oliy ta’lim sifatini oshirish choralari ko‘rib chiqildi. – 30.04.2025. https://president.uz/oz/lists/view/8093
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3276-son qarori. 15.09.2017 (dastlabki tahrir). https://lex.uz/docs/-3343077?ONDATE=17.09.2017
6. Iminov B. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat ta’lim muassasalarining vujudga kelish tarixi // FarDU ilmiy xabarlari. – 2025. – T. 31, № 3. – B. 93.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-76-son Farmoni. 05.05.2025. https://lex.uz/docs/-7513052
8. Levy D.C. The Unanticipated Explosion: Private Higher Education’s Global Surge // Comparative Education Review. – 2006. – Vol. 50, № 2. – P. 217–240.
9. Altbach P.G., Levy D.C. (eds.). Private Higher Education: A Global Revolution. – Rotterdam: Sense Publishers, 2005.
10. Ruziev K., Burkhanov U. Uzbekistan: Higher Education Reforms and the Changing Landscape Since Independence // 25 Years of Transformations of Higher Education Systems in Post-Soviet Countries / Eds. J. Huisman, A. Smolentseva, I.Froumin. – Cham: Palgrave Macmillan, 2018. – P. 435-459.
11. Eshonkulova N. Trends of development of private higher education in Uzbekistan // O‘zMU xabarlari. – 2024. – № 1/6.1. – B. 260-262.
12. Inside Uzbekistan’s Private University Boom // The Diplomat. – 2025, May. – URL: https://thediplomat.com/2025/05/inside-uzbekistans-private-university-boom
13. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. 23.09.2020 (dastlabki tahrir). – URL: https://lex.uz/docs/-5013007?ONDATE=24.09.2020
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 241-son qarori. 27.03.2018. https://lex.uz/docs/-3601227
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019. https://lex.uz/docs/-4545884
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-6155-son Farmoni. 03.02.2021. https://president.uz/oz/lists/view/4132
17. O‘zbekiston Respublikasining «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida»gi O‘RQ-701-son Qonuni. 14.07.2021. https://lex.uz/docs/-5511879
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-81-son Farmoni. 24.05.2024. https://president.uz/oz/lists/view/7256
19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisobot. – Toshkent, 2026. https://api-portal.gov.uz/uploads/7/2026/02/23/ad8f3f3e-2c42-75b3-a984-6eadcb3307de_media_.pdf